ABUL QOSIM SOID IBN AHMAD AL-ANDALUSIYNING “TABOQOT AL-UMAM” ASARIDA DINSHUNOSLIK MASALALARINING YORITILISHI

THE REPRESENTATION OF RELIGIOUS STUDIES ISSUES IN THE “TABAQAT AL-UMAM” BY ABUL QASIM SAID IBN AHMAD AL-ANDALUSI

ОСВЕЩЕНИЕ РЕЛИГИОВЕДЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В ТРУДЕ АБУЛЬ-КАСИМА САИДА ИБН АХМАДА АЛЬ-АНДАЛУСИ “ТАБАКАТ АЛЬ-УМАМ”

TURSUNALIYEV Abdurakhmon Anvarjon ogli
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Master’s Student in Comparative Religion
E-mail: abuzarrshahristoniy@gmail.com
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

Supervisor: **ERNAZAROV Odiljon,**
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
PhD in history, Associate Professor of the UNESCO Chair on religious studies and the comparative study of world religions,
o.ernazarov@iiau.uz,
11 A.Kadiri, Tashkent 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2026/3/6

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XI asr Andalusiya qozisi, mashhur astronom va tarixchi olim Abul Qosim Soid ibn Ahmad al-Andalusiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda uning 1068-yilda yozilgan va bizgacha to‘liq holda yetib kelgan yagona asari “Taboqot al-umam” (Xalqlar tasnifi) asarida zikr etilgan dinlar va diniy guruhlar qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Maqolada avvalo, olimning Toledo ilmiy muhitidagi faoliyati, “Toledo jadvallari” tuzilishidagi ishtiroki hamda unda boshqa dinlarga nisbatan xolis munosabat shakllanishiga sabab bo‘lgan ko‘p millatli ijtimoiy muhit qisqacha tavsiflangan. Tadqiqot birlamchi manba asosida olib borilgan bo‘lib, unda muallifning xalqlarni ilm-fanga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ikki katta guruhga (birinchi guruh – ilm-fanga e’tibor qaratgan xalqlar, ikkinchisi – ilm-fanga e’tibor qaratmagan xalqlar) ajratish metodologiyasi batafsil yoritilgan.*

Maqolada, jumladan, qadimiy “yetti xalq” konsepsiyasi, sobiiylar (Harron shahridagi yulduzga sig‘inuvchilar hamda muallif tomonidan qadimgi xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan umumiy toifa)ning asardagi ikki xil ma’nosi, hind xalqining barohimalik va sobiiylik e’tiqodlari, forslarning haniflik, sobiiylik va majusiylik (zardushtiylik) bosqichlari, qadimgi Bobil va Mesopotamiya xalqlarining astral-diniy qarashlari, shuningdek Namrud va Germes (Idris alayhissalom) obrazlari misolida ko‘rsatilgan diniy sinkretizm masalasi ko‘rib chiqilgan. Alohida o‘rinda misrliklarning sobiiylikdan xristianlikka, so‘ngra qisman islomga o‘tish jarayoni, yahudiylarning ilohiy vahiyga asoslangan ilmiy-diniy merosi, rimliklar misolida xristianlikning yoritilishi hamda Andalusiya va arab xalqining islom davridagi ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan.

Maqolada, shuningdek, islomgacha bo‘lgan arab qabilalarining diniy xaritasi (astrolatriya va ibtidoiy butparastlik, yahudiylik, xristianlik, zardushtiylik va moniylikning turli qabilalar orasida tarqalishi) tizimlashtirilib ko‘rsatilgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan qiyosiy-tarixiy, tipologik, germenevtik hamda tavsifiy tahlil metodlari yordamida Soid al-Andalusiyning manbashunoslik va tarixiy-falsafiy yondashuvi ochib berilgan. Tadqiqot Soid al-Andalusiyning diniy guruhlarga nisbatan xolis, ilmiy-tahliliy va bag‘rikeng yondashuvini, uning turli e’tiqod vakillari bilan bevosita ilmiy muloqotda bo‘lgan Toledo muhitidan ta’sirlangan dunyoqarashini ko‘rsatib beradi hamda “Taboqot al-umam” asarining “milal va nihal” janri va umuman qiyosiy dinshunoslik fanining rivojiga qo‘shgan hissasini baholaydi. Shuningdek, maqolada Soid al-Andalusiyning boshqa yo‘qolgan asarlari (“Javomi’ axbor al-umam”, “Maqolot ahl al-milal van-nihal” va “Isloh harakot al-kavokib”) haqidagi ma’lumotlar ham qisqacha tilga olinib, ularning “Taboqot al-umam” bilan mazmuniy bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Maqola o‘zbek dinshunosligida ushbu asar bo‘yicha yozilgan birinchi maxsus tadqiqotlardan biri sifatida ilmiy yangilikka ega bo‘lib, “Taboqot al-umam”ni o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilish zaruratini ham ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Soid al-Andalusiy, Taboqot al-umam, sobiiylar, Harron shahri, yahudiylik, xristianlik, majusiylik, hind dinlari, sanaviylar, islom, qiyosiy dinshunoslik, milal va nihal.*

Abstract: *This article analyzes the religions and religious groups mentioned in Tabaqat al-Umam (Categories of Nations), the only surviving complete work written in 1068 by the 11th-century Andalusian Qadi, renowned astronomer, and historian Abu al-Qasim Sa’id ibn Ahmad al-Andalusi, from the perspective of comparative religious studies. First, the article provides a brief overview of the scholar’s activities within the intellectual milieu of Toledo, his involvement in the compilation of the “Toledo Tables,” and the multicultural social environment that contributed to the development of his impartial attitude toward other religions. The research is based on the primary source and provides a detailed examination of the author’s methodology of dividing nations into two broad categories based on their attitude towards science (nations that cultivated science and those that did not).*

The article examines, among other issues, the ancient concept of the “Seven Nations” and the two distinct meanings of the term Sabians in the work: the star worshippers

of the city of Harran and a general category used by the author in reference to ancient peoples. It also considers the religious beliefs of the Indian people, including Brahmanism and Sabianism; the successive stages of the Persian religious tradition—Ḥanīfism, Sabianism, and Magianism (Zoroastrianism); the astral-religious beliefs of the peoples of ancient Babylon and Mesopotamia; as well as the phenomenon of religious syncretism, illustrated through the figures of Nimrod and Hermes (the Prophet Idris, peace be upon him). In particular, the article analyzes the transition of the Egyptians from Sabianism to Christianity and subsequently, in part, to Islam; the scholarly and religious heritage of the Jews based on divine revelation; the development of Christianity as reflected in the case of the Romans; and the role of Andalusia and the Arab people in the advancement of science and learning during the Islamic period.

Furthermore, the article systematically presents the religious map of pre-Islamic Arab tribes (the spread of astrolatry, primitive idolatry, Judaism, Christianity, Zoroastrianism, and Manichaeism among various tribes). Using comparative-historical, typological, hermeneutic, and descriptive analytical methods, Sa'id al-Andalusi's source-study and historical-philosophical approach is revealed. The study demonstrates Ṣa'id al-Andalusi's impartial, scholarly, analytical, and tolerant approach to various religious groups, as well as his worldview shaped by the intellectual milieu of Toledo, where he engaged directly in scholarly dialogue with representatives of different faiths. It also evaluates the contribution of Ṭabaqat al-Umam to the development of the milal wa al-niḥal genre and the broader field of comparative religious studies. Additionally, the article briefly mentions data concerning Sa'id al-Andalusi's other lost books (Jawami' Akhbar al-Umam, Maqalat Ahl al-Milal wa al-Nihal, and Islah Harakat al-Kawakib) and shows their thematic connection with Tabaqat al-Umam.

Possessing scientific novelty as one of the first special studies written on this book in Uzbek religious studies, the article also emphasizes the necessity of translating Tabaqat al-Umam completely into Uzbek.

Keywords: *So'id al-Andalusi, Tabaqat al-Umam, Sabians, city of Harran, Judaism, Christianity, Magianism (Zoroastrianism), Indian religions, Dualists (Sana'iya), Islam, comparative religion, milal wa nihal.*

Аннотация: *В данной статье с точки зрения сравнительного религиоведения анализируются религии и религиозные группы, упомянутые в единственном дошедшем до нас в полном объеме труде "Табакат ал-умам" (Категории наций), написанном в 1068 году андалузским кадием XI века, известным астрономом и историком Абу-л-Касимом Саидом ибн Ахмадом ал-Андалуси. В статье сначала кратко описывается деятельность ученого в научной среде Толедо, его участие в составлении "Толедских таблиц", а также многонациональная социальная среда, способствовавшая формированию у него объективного отношения к другим религиям. Исследование проводится на основе первоисточника, в нем подробно освещается методология автора по разделению народов на две большие группы в зависимости от их отношения к науке (первая группа народы, развивавшие науку, вторая не уделявшие ей внимания). В частности, рассматриваются концепция древних "семи наций", двоякое значение сабиев в произведении (звездопоклонники из города Харран, а также общая категория, применявшаяся автором к древним народам), брахманские и сабийские верования индусов, этапы ханифизма, сабиизма и маджусизма (зороастризма) у персов, астрально-религиозные воззрения древних народов Вавилона и Месопотамии, а также проблема религиозного синкретизма на примере образов Нимрода и Гермеса (пророка Идриса). Отдельно анализируется процесс перехода египтян от сабиизма к христианству, а затем частично к исламу; научно-религиозное наследие евреев, основанное на божественном откровении; освещение христианства на примере римлян, а также роль Андалусии и арабского народа в развитии науки в исламский период. Кроме того, в статье систематизирована религиозная карта доисламских арабских племен (распространение астролатрии и первобытного идолопоклонства, иудаизма, христианства, зороастризма и манихейства среди различных племен). С помощью сравнительно-исторического, типологического, герменевтического и описательного методов анализа раскрывается источниковедческий и историко-философский подход Саида ал-Андалуси. Исследование демонстрирует объективный, научно-аналитический и толерантный подход Саида ал-Андалуси к религиозным группам, его мировоззрение, сформировавшееся под влиянием среды Толедо, где он вел непосредственный научный диалог с представителями разных конфессий, а также оценивает вклад труда "Табакат ал-умам" в жанр "милал ва нихал" и развитие сравнительного религиоведения в целом. Также кратко упоминаются сведения о других утраченных трудах Саида ал-Андалуси ("Джавами ахбар ал-умам", "Макалат ахл ал-милал ва-н-нихал" и "Ислах харакат ал-кавакиб") и показывается их смысловая связь с "Табакат ал-умам". Статья обладает научной новизной как одно из первых специальных исследований по данному произведению в узбекском религиоведении и подчеркивает необходимость полного перевода "Табакат ал-умам" на узбекский язык.*

Ключевые слова: *Соид аль-Андалуси, Табакат аль-умам, сабии, город Харран, иудаизм, христианство, маджусизм (зороастризм), индийские религии, дуалисты (санаиты), ислам, сравнительное религиоведение, милал ва нихал.*

KIRISH

Islom sivilizatsiyasi tarixida turli din, e'tiqod va falsafiy ta'limotlarni tizimli ravishda o'rganish hamda ularni qiyosiy tahlil qilish an'anasi ilk islom

davrlariga borib taqaladi. Ushbu izchil tadqiqot an'anasi keyinchalik islom manbashunosligida "ilmul-milal van-nihal" (dinlar, mazhablar va firqalar haqidagi ilm) deb nomlangan o'ziga xos noyob ilmiy yo'nalishning shakllanishiga zamin yaratgan. Mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borgan allomalar orasida XI asr Andalusiya ilmiy muhitining yirik vakili, nufuzli qozi, yetuk astronom va tarixchi Soid al-Andalusiy alohida o'rin egallaydi.

Qomusiy olimning bizgacha to'liq holatda saqlanib qolgan yagona asari "Taboqot al-umam" hisoblanadi. Asar nafaqat o'rta asrlar ilm-fan va kashfiyotlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi noyob manba, balki jahon xalqlarining madaniy taraqqiyoti, qadimgi e'tiqodiy tizimlar evolyutsiyasi, shuningdek, qiyosiy dinshunoslik sohasi uchun beqiyos ilmiy qiymatga ega bo'lgan muhim manba hisoblanadi.

Olimning to'liq ismi – Abul Qosim Soid ibn Ahmad ibn Abdurahmon ibn Muhammad ibn Soid at-Tag'libiy al-Andalusiy bo'lib, u milodiy 1029-yilda Almeriya shahrida tug'ilgan. Arablarning Tag'lib qabilasiga mansub oiladan chiqqan Soid al-Andalusiy taxminan 1046-yilda Toledoga ko'chib o'tib, islom ilohiyoti, fiqh, mantiq, adabiyot, tibbiyot, matematika va falsafani chuqur o'zlashtirgan. U Abu Muhammad ibn Hazm, al-Fath ibn Qosim, Abul Valid al-Vaqshiy va boshqa olimlardan dars olgan. Soid al-Andalusiy otasining vafotidan so'ng Toledo qoziligi lavozimini egallab, bu lavozimda 1070-yilgacha faoliyat yuritgan. Soid al-Andalusiy 1070-yilning 6-iyulida 41 yoshida vafot etgan va uning janozasini Toledoning ko'zga ko'ringan nufuzli ulamolaridan biri Yahyo ibn Sa'id ibn al-Hadidiy o'qigan.

Soid al-Andalusiy Toledo amirligi saroyida yosh astronom va olimlar guruhiga rahbarlik va homiylik qilgan. Jumladan, u mashhur astronom Abu Is'hoq az-Zarqaliy bilan hamkorlikda "Toledo zijlari" (Toledan tables) nomli astronomik jadvallar tuzilishida ishtirok etgan (Said al-Andalusi, 1991:17). Bu jadvallar keyinchalik lotin tiliga tarjima qilinib, G'arb astronomiyasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Soid al-Andalusiy Toledo saroyida turli din vakillari (xristian, yahudiy va musulmon olimlar) bilan ham yaqin ilmiy muloqotda bo'lgan. Bu esa uning boshqa dinlarga nisbatan keng va ochiq ilmiy yondashuvining asosini tashkil etgan.

Soid al-Andalusiyning astronomiya, tarix va qiyosiy dinshunoslik sohalariga oid qator asarlari o'sha davrning murakkab siyosiy bo'hronlari, xususan, Andalusiyadagi "rekonkista" (Pireney yarim orolining tub xristian aholisi bo'lgan ispanlar va portugallar tomonidan arablar bosib olgan hududlarni VIII—XV asrlar davomida qayta bosib olish harakati) jarayonlari oqibatida yuzaga kelgan beqarorlik tufayli yo'qolib ketgan. Shunga qaramay, mazkur asarlarning aniq nomlari va ularning ilmiy qiymati haqidagi ma'lumotlar keyingi asr manbashunosligi vakillari, xususan, Ibn Abi Usaybi'a, Hoji Xalifa va Ibn al-Qiftiy kabi yirik olimlarning asarlarida o'z aksini topgan. Ularning xabarlariga tayanib, Soid al-Andalusiyning quyidagi asarlarini bilib olishimiz mumkin. Birinchisi – "Javomi' axbor al-umam min al-arab val-ajam" (Arab va ajam xalqlari tarixi haqidagi xabarlar to'plami). Ushbu qomusiy asar Soid al-Andalusiyning nafaqat yetuk falakiyotshunos, balki yirik tarixchi ham bo'lganidan dalolat beradi. Asarda qadimgi dunyo xalqlarining kelib chiqishi, hukmronlik qilgan sulolalar, siyosiy taraqqiyot bosqichlari va ijtimoiy-madaniy tuzilishi aniq xronologik izchillikda bayon etilgan.

Ikkinchisi – "Maqolot ahl al-milal van-nihal" (Dinlar va firqalar ahli haqida maqolalar). Qiyosiy dinshunoslik va diniy firqalarni o'rganishga bag'ishlangan ushbu noyob asarda muallif jahon dinlari, falsafiy oqimlar hamda islom dini ichidagi mazhablarni qiyosiy tahlil qilgan. Bu kitob olimning bag'rikengligi hamda o'zga e'tiqodlarni xolis tamoyillar asosida o'rganganligini ko'rsatadi.

Uchunchisi – "Isloh harakot al-kavokib vat-ta'rif bi-xato ar-rosidin" (Sayyoralar harakatini isloh qilish va kuzatuvchilar xatolarining bayoni). Toledo astronomlar akademiyasining rahbari sifatida faoliyat yuritgan Soid al-Andalusiy Ptolomeyning geotsentrik tizimida, shuningdek, undan keyingi davrlarda ishlab chiqilgan astronomik jadvallarda (zijlarda) mavjud bo'lgan qator kamchiliklarni tuzatgan. Muallif mazkur sof matematik va astronomik tadqiqotida osmon jismlarining harakatini aniqroq hisoblash bo'yicha o'zining muqobil tuzatishlari va metodologiyasini taklif etgan.

To'rtinchisi – "Tarix al-Islom" (Islom tarixi). Ayrim o'rta asr arab tarixshunoslari Soid al-Andalusiyning bevosita islom ummati tarixi va Andalusiya hukmdorlari solnomasiga bag'ishlangan alohida, mustaqil tarixiy asar tasnif etganini ham qayd etishgan. Afsuski, bu nodir manba ham ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar natijasida mutlaqo yo'qolib ketgan bo'lib, bugungi kunda uning birorta nusxasi mavjud emas.

Beshinchisi – "Sivon al-hikam fi taboqot al-hukamo" (Hakimlar tabaqalari haqidagi hikmatlar xazinasi). Ayrim manbalarda olimning bevosita ilm-fan va falsafa namoyandalari toifalarining ijtimoiy-ilmiy darajalari hamda ularning hikmatlarini tasniflashga qaratilgan ushbu asari ham tilga olinadi. Tadqiqotchilarning faraziga ko'ra, mazkur asar u yozgan qomusiy asarlarning uzviy bir qismi yoki olimlar tasnifiga oid

alohida to‘plam bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Olimning yuqorida nomi zikr qilingan asarlaridan tashqari boshqa asarlari ham bo‘lishi mumkin. Bizning manbalar orqali olib borgan izlanishlarimiz orasida yuqoridagi asarlar aniqlandi, xolos.

Soid al-Andalusiy “Maqolot ahl al-milal van-nihal” (Dinlar va firqalar ahli haqida maqolalar) nomli asari bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning bir qismi va unda zikr etilgan dinlarga oid ma’lumotlar “Taboqot al-umam” asarida saqlanib qolgan. Ushbu ikki asardan ko‘rinib turibdiki, olim “al-milal van-nihal” janrida ijod qilgan. Shu sababli “Taboqot al-umam” asaridagi dinlar va diniy guruhlar haqidagi qismlari qiyosiy dinshunoslik uchun juda qimmatlidir (Llavero Ruiz E. 1987: 2).

“Taboqot al-umam” asarining yozilish tarixi va qo‘lyozma nusxalariga kelsak, asar 1068-yilda ya’ni muallifning vafotidan ikki yil oldin yozib tugatilgan. Asarning bir nechta qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, bular orasida eng muhimi Parij Milliy kutubxonasida saqlanuvchi (1851-1852-yillarda ro‘yxatga olingan) nusxa hisoblanadi. Asarni dastlab fransuz sharqshunosi R. Blasher 1935-yilda fransuz tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik asar ilm-fan va kashfiyotlar tarixini o‘rgangan amerikalik fizik olimlar S. I. Salem va A. Kumar tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan (1991) hamda livanlik tarixchi olima Hayat Bou Alvan tahriri ostida arab tilida nashr etilgan (1985). Hozirgi kunda “Taboqot al-umam” jahon qiyosiy dinshunosligi, ilm-fan va kashfiyotlar sohasida e’tiborli manbalardan biri sifatida o‘rganilmoqda.

Mavzuning tarixshunosligida zamonaviy tadqiqotchilar turli yo‘nalishlarda ish olib borishgan. Hindistonlik sharqshunos professor Muhammad Sobir Xon asarning kirish qismini tahlil qilib, uning fan tarixshunosligidagi metodologik ahamiyatini ko‘rsatgan. Belgiyalik sharqshunos, islomshunos va filolog Godefrua de Kallatay “Taboqot al-umam”dagi sobiiylarga oid barcha parchalarni maxsus tadqiqotda chuqur tahlil qilgan. Ispaniyalik sharqshunoslar, Barselona universiteti professorlari Xulio Samso va Miquel Forsada kabi tadqiqotchilar esa asarning Andalusiya ilmiy-madaniy hayotidagi o‘rnini ko‘rib chiqishgan. O‘zbek dinshunosligida ushbu asarga doir tadqiqot hali yozilmagan. Holbuki, “Taboqot al-umam”ning qiyosiy dinshunoslik tarixi nuqtai nazaridan ahamiyati katta.

Maqolada tavsifiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilib, Soid al-Andalusiyning “Taboqot al-umam” asarida zikr etilgan dinlar va diniy guruhlar o‘rganildi. Shu maqsad doirasida birinchidan, asarning umumiy tuzilishi va muallifning metodologiyasi tahlil qilindi. Ikkinchidan, asarda zikr etilgan e’tiqod vakillari sobiiylar (yulduzga sig‘inuvchilar), majusiylar (zardushtiylar), sanaviylar (dualistlar) hamda hind diniy qarashlari masalasi bevosita birlamchi manba asosida ko‘rib chiqildi. Uchinchidan, yahudiylik va xristianlik dinlari haqidagi ma’lumotlar o‘rganildi. To‘rtinchidan, islom va arab ilm-fanining asardagi yoritilishi tadqiq qilinadi.

USULLAR

Abul Qosim Soid al-Andalusiy ilmiy merosi va uning bizgacha yetib kelgan yagona asari “Taboqot al-umam”ni o‘rganishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, germenevtik hamda tavsifiy tahlil etish kabi usullardan foydalanildi.

NATIJA

“Taboqot al-umam” asarining asosiy g‘oyaviy-metodologik poydevori muallifning xalqlarni ikki katta guruhga ajratishidir. Birinchi guruh – ilm-fanga e’tibor qaratgan xalqlar, ikkinchisi – ilm-fanga e’tibor qaratmagan xalqlar. Birinchi guruhga Soid al-Andalusiy sakkiz xalqni kiritadi. Bular hindlar, forslar, bobilliklar, misrliklar, yunonlar, rimliklar, arablar va yahudiylar. Ikkinchi guruhga esa, muallifning fikricha, xitoyliklar, turklar, ya’juj va ma’juj, slavyanlar, afrika xalqlari va boshqa xalqlar kiradi (Said al-Andalusi, 1991:32).

Bu tasnifning o‘ziga xosligi shundaki, u etnik yoki siyosiy mezonlarga emas, balki xalqlarning ilm-fanga bo‘lgan munosabatiga asoslanadi. Muallif uchun xalqning buyukligi uning harbiy qudrati yoki siyosiy ta’sirida emas, balki ilmiy-madaniy merosida ko‘rinadi.

Asarning kirish qismida Soid al-Andalusiy o‘zining tarixiy-falsafiy metodologiyasini bayon etib, insoniyat tarixini qadimiy “yetti xalq” tushunchasidan boshlaydi. Bular forslar, somiylar, qibtiylar va janub ahli, yunonlar va ularga yaqin xalqlar, turkiy xalqlar, hind ahli va chin ahli. Bu xalqlar haqida olim shunday yozadi: “Mana shu yettita xalq barcha bashariyatni o‘z ichiga olar edi. Ularning barchasi osmon jismlari va yettita sayyora kabi falakiy jismlarni ifodalovchi sanamlarga sig‘inuvchi sobiiylar (yulduzparastlar) jamoalaridan edilar. Keyinchalik bu yetti xalq bir-biridan bo‘linib ketdi. Ularning tillari, dinlari ham turlicha bo‘lib ketdi” (Said al-Andalusi, 1991:30-31). Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bu qism al-Mas’udiyning “Kitob at-Tanbih val-Ishrof” asaridan ilhomlangan bo‘lib, olim unda o‘zining alohida tarixiy-falsafiy konsepsiyasini ilgari surgan (M.J. de Goyeje, 1894: 77). O‘ziga xos yondashuvida olim qadimiy yetti xalqning barchasini

“sobiiylar” deb nomlangan umum diniy-ma’naviy toifaga mansub deb belgilaydi. Bu xulosa sharq manbalarida uchramaydigan, olimning o‘ziga xos yondashuvidir.

“Taboqot al-umam”da hindlar ilm-fanni rivojlantirgan birinchi millat sifatida keltiriladi. Soid al-Andalusiy hindlarga yuksak baho berib shunday yozadi: “Ilm-fanni rivojlantirgan birinchi millat bu hindlar. Bu kuchli xalq, ko‘plab aholi va boy saltanatga ega. Hindiston o‘z xalqining donoligi bilan mashhur. Ko‘p asrlar davomida barcha o‘tgan podshohlar hindlarning barcha bilim sohalaridagi yutuqlarini e’tirof etishgan” (Said al-Andalusi, 1991:37). Bu aniq iqtibos Soid al-Andalusiyning hindlarga bo‘lgan yuksak hurmatini va ularning diniy-ilmiy an’anasiga bag‘rikeng munosabatini ko‘rsatib beradi.

Soid al-Andalusiy hind aholisini asosan ikki diniy toifaga ajratadi. Birinchisi – barohimalar (brahmanlar) va ikkinchisi – sobiiylar. Brahmanlik ta’limotida olam Oliy Iloh (Brahman) bilan bir vujud ekanligiga, inson ruhi va koinot ruhi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mavjudligiga, xudoni anglash bilim orqali amalga oshishiga e’tiqod qilingan. Soid al-Andalusiy hindlarning ilmiy yutuqlarini ana shu e’tiqodiy poydevor bilan bevosita bog‘laydi. Asarda ta’kidlanishicha, mokshaga erishish uchun astronomiya, matematika, mantiq kabi fanlarni o‘rganish majburiy hisoblangan (Said al-Andalusi, 1991:37-38).

Hind sobiiylari masalasiga kelsak, Soid al-Andalusiy bu nomni hindlarning kosmologik e’tiqodlarini tushuntirish uchun o‘ziga xos tarzda qo‘llaydi. Uning yozishicha, hind sobiiylari dunyoning abadiy va ibtidosiz ekanligiga e’tiqod qilishgan. Biroq bu materialistik ateizm emas, balki Yaratuvchining doimiy emanatsiya jarayoni sifatida tushunilgan. Bu talqin Soid al-Andalusiyning boshqa din vakillarining ta’limotlarini o‘rganishda ularni islom ilohiyoti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslamasdan, mustaqil tizim sifatida tushunishga intilganini ko‘rsatadi.

“Taboqot al-umam”da forslar ikkinchi ilm ahli sifatida keltiriladi. Soid al-Andalusiy forslar o‘z podshohini qadimdan “shahanshoh” deb atashganlarini aytadi. Forslar eng unumdor iqlim hududlarini nazorat qilganligini ham asarda yozib o‘tadi.

Asarda forslarning e’tiqodlari haqidagi quyidagicha yozilgan: “Forslar dastlab 1800 yil davomida “haniflik” va sobiiylik dinlariga e’tiqod qilganlar. Keyinchalik, Zardusht Vishtaspa podsholigi davrida paydo bo‘lib, majusiylik (zardushtiylik) dinini targ‘ib qilgan. Majusiylik dini olov va nurga sig‘inish, dunyoni yorug‘lik va zulmatdan iborat deb bilish hamda beshta asosiy aqida (xudo, iblis, materiya, makon va zamon) ustiga qurilgan” (Said al-Andalusi, 1991:42-43).

Qadimgi Bobil va Mesopotamiya xalqlari Soid al-Andalusiy tomonidan asosan astronomiya, astrologiya va geometriya ilmlarini yaratgan tamaddun egalari sifatida ta’riflanadi: “Bobilliklar orasida insoniyat bilimlarining barcha sohalariga, xususan, riyoziyot (matematika) va ilohiyotga (teologiyaga) ulkan hissa qo‘shgan ko‘plab buyuk olimlar va yetuk mutafakkirlar bor edi. Ular sayyoralarni kuzatishga alohida qiziqish bildirib, osmon sirlarini sinchkovlik bilan o‘rganganlar” (Said al-Andalusi, 1991:44). Muallifning ushbu yondashuvi shuni yaqqol ko‘rsatadiki, bobilliklar nazdida astronomiya va ilohiyot bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan yagona dunyoqarash tizimini tashkil etgan. Ya’ni, ularning sayyoralarni kuzatish va osmon jismlarini o‘rganish amaliyoti faqatgina empirik ilm emas, balki bevosita diniy ibodat va “astral teologiya” amaliyoti bilan uzviy kechgan.

Soid al-Andalusiy qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasi tarixini islomiy tarixshunoslik qarashlariga bog‘lash maqsadida Qur’oni karimda ishorat qilingan qadimgi podshoh Namrudni (Nimrod) bobilliklar tarixi bilan uyg‘unlashtiradi:

“Birinchi Namrud Xomning o‘g‘li Kushning farzandi bo‘lib, u minora (Bobil minorasi) bunyodkori edi. Alloh taolo Qur’onda u haqida shunday zikr qilgan: “Ulardan oldingilar ham makr qilgan edilar. Shunda Alloh ularning binolarini poydevoridan yemirdi, bas, tomlari ustilariga quladi va azob ularga o‘zlari sezmagan tomondan keldi” (Nahl surasi, 26-oyat).

Asarning ushbu bobida qiyosiy dinshunoslik uchun muhim bo‘lgan yana bir ajoyib masala tarixiy va afsonaviy shaxslarni aynanlashtirish (diniy sinkretizm) masalasi ko‘tariladi. Olim qadimgi Vavilondagi Germes (Hermes) shaxsini samoviy dinlardagi payg‘ambar bilan bitta shaxs deb hisoblaydi va shunday yozadi: “Ibroniylar Uni payg‘ambar Xanux yoki Axnux (Enox) deb ataydilar. Bu islomdagi Idris alayhissalomdir” (Said al-Andalusi, 1991:45).

Bu yondashuv islom, yahudiylik va qadimgi Bobil diniy an’analarini o‘zaro uyg‘unlashtirib, tarixiy siymolarni yagona teologik zanjirda qiyosiy o‘rganishning o‘rta asrlardagi yuksak va noyob namunasidir.

Bundan tashqari, bobilliklarning ibodatxona me’morchiligi hamda samoviy jismlar quvvatidan foydalanish (sihr al-kavokib) amaliyoti xususida berilgan ma’lumotlar ham dinlar tarixi uchun beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi: “Ular ma’mur (aholi yashaydigan) dunyoning g‘arbiy qismi xalqlariga ibodatxonalar qurishni hamda sayyoralarning quvvatini jalb etish va ularning tabiatini kashf qilishda ushbu inshootlardan

(astral maqsadlarda) qanday foydalanishni o‘rgatganlar” (Said al-Andalusi, 1991:44-45).

Bobilliklarning diniy e’tiqodlari yulduzparastlik (astral kult) va samoviy jismlarni ilohiylashtirish bo‘lgan. Soid al-Andalusiy asarida ular qadimgi sobiiylar nomi bilan zikr etiladi.

Islom dinida sobiiylar Qur’oni karimda “kitob ahli” qatorida uch marta tilga olingan diniy guruh bo‘lib (Baqara, 62; Moida, 69; Hajj, 17), ularning aniq tarixiy-diniy mohiyati haqida musulmon olimlari orasida turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Amerikalik sharqshunos olima Tamara M. Grinning fikriga ko‘ra, bu nom asosan Harron shahrida yashagan va yulduzlarga sig‘inish e’tiqodini saqlab qolgan jamoaga nisbatan qo‘llanilgan (Green, 1992: 164).

Soid al-Andalusiy o‘z asarida sobiiylar tushunchasini ikki yo‘nalishda qo‘llaydi. Birinchidan, u qadimiy “yetti xalq”ning barchasini sobiiylar deb ataydi. Bu uning o‘ziga xos tarixiy-falsafiy qarashidir. Ikkinchidan, u o‘z davrida mavjud bo‘lgan Harron jamoasini ham “sobiiylar” deb ataydi. Belgiyalik sharqshunos olim Godefrua de Kallatayning tadqiqotida ko‘rsatilishicha, Soid al-Andalusiy “Taboqot al-umam”ning bir necha o‘rnida turli xalqlar (xususan bobilliklar va forslar) ichidagi sobiiy guruhlariga alohida to‘xtaladi (De Callatay G., 2017: 291).

Soid al-Andalusiyning sobiiylarni qadimgi umumjahon diniy-ilmiy an’anasining qoldig‘i sifatida ko‘rib chiqishi tasodifiy emas. Asarning umumiy xulosasiga ko‘ra, qadimgi ilm-fan va yulduzshunoslik (astronomiya)ning ildizlari aynan sobiiy an’analariga borib taqaladi, bu esa keyinchalik yunon, fors va boshqa xalqlar ilmiy merosining shakllanishiga asos bo‘lgan deb ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan Soid al-Andalusiyning yondashuvi Ibn an-Nadimning “Kitob al-Fihrist” va Shahristoniyning “al-Milal val-Nihal” asarlarida uchraydigan talqinlar bilan hamohang, lekin ularda ko‘rilmagan o‘ziga xos tomonlarga ham ega (De Callatay G., 2017: 306).

“Taboqot al-umam” asarida misrliklar haqida quyidagicha yozilgan: “Qadimda misrliklar sobiiylik diniga e’tiqod qilishgan bo‘lib, butlarga sig‘ingan va ibodatxonalar qurishgan. Keyinchalik ular xristianlikni qabul qilishgan va musulmonlar Misrni fath qilgunga qadar shu dinda qolishgan. Fathdan keyin ularning bir qismi Islomni qabul qilgan bo‘lsa, qolganlari xristian bo‘lib qolgan. To‘fondan oldin yashagan qadimgi misrliklar turli fan sohalarini rivojlantirgan va dunyoni “yaxshilik va buzuqlik” deb bilganlar. Ular insoniyat paydo bo‘lishidan avval dunyoni g‘alati shakl va ko‘rinishdagi hayvonlar makon tutganiga ishonganlar” (Said al-Andalusi, 1991:61).

“Taboqot al-umam” asarida yahudiylar (Banu Isroil) sakkiz “ilm ahli” xalqlaridan biri sifatida alohida o‘ringa ega. Soid al-Andalusiy yahudiy xalqining diniy-ma’naviy merosini, xususan, ilohiy vahiyga asoslangan bilim an’anasini hurmat bilan tasvirlaydi. Uning ta’kidlashicha, yahudiy olimlarining tilshunoslik, tibbiyot va falsafa sohasidagi ilmiy izlanishlari ana shu e’tiqodiy an’anadan ruhlanib rivojlangan. Banu Isroil xalqi falsafaga qiziqishlari bilan mashhur emas edi, chunki ular asosan qonunshunoslik va payg‘ambarlar tarjimai holini o‘rganish bilan band bo‘lganlar. Bu millat payg‘ambarlik beshigi va nabiylikning o‘chog‘i hisoblanadi, deb yozadi olim (Said al-Andalusi, 1991:105).

Xristianlik masalasiga kelsak, Soid al-Andalusiy uni rimliklar tushunchasi doirasida ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv o‘sha davr arab tarixnavisligida keng tarqalgan an’anaga mos keladi va kengroq ma’noda xristianlik yunon-rim madaniy-diniy dunyosini anglatgan (Bou Alwan H., 1985: 47). Asarda xristian xalqining antik davrdagi ilmiy yutuqlari bilan keyingi xristian davridagi ilmiy faoliyatini farqlab ko‘rsatishi muallifning tarixiy davrlashtirish borasidagi nozik metodologik qarashlarini namoyon etadi.

Soid al-Andalusiy asarda shunday yozadi: “Qadimda rimliklar sobiiylik dinida bo‘lganlar. Konstantinopol asoschisi bo‘lgan Konstantin xristianlikni qabul qilgan va o‘z fuqarolarini ham shunga chaqirgan. Natijada, aholi xristianlikni qabul qilib, butparastlikni, ibodatxonalarni ulug‘lashni va sobiiylar ta’limotiga oid boshqa marosimlarni rad etganlar” (Said al-Andalusi, 1991:58).

Soid al-Andalusiyning xristian ilm ahliga nisbatan xolis va hurmatli yondashuvi uning o‘zi yashagan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Toledo XI asrda islom, xristian va yahudiy madaniyatlari kesishgan ko‘p millatli shahar bo‘lib, bu yerda uch din vakillari bir-biri bilan yonma-yon yashagan va ilmiy hamkorlik qilgan. Soid al-Andalusiy o‘zi ham ana shu muhitning mahsuli bo‘lib, uning asarida bu bag‘rikeng ilmiy muhitning ta’siri yaqqol seziladi.

“Taboqot al-umam” asarining arablarga va Andalusiyaga bag‘ishlangan boblari muallifning eng g‘ayrat bilan yozgan qismlaridir (Said al-Andalusi, 1991:72, 84). Soid al-Andalusiy bu boblarda islom dinining ilm-ma’rifatga, bilim izlashga bo‘lgan teran e’tibori qanday qilib arab xalqini qisqa muddat ichida dunyo ilm-fanining yetakchi markaziga aylantirganini ko‘rsatib beradi. Muallif arab olimlarining astronomiya, tibbiyot, falsafa va matematika sohasidagi yutuqlarini batafsil sanab o‘tar ekan, bu yutuqlarni nafaqat alohida

shaxslarning iste'dodi, balki islom sivilizatsiyasining ilmga bo‘lgan umumiy yondashuvi bilan bog‘laydi.

Soid al-Andalusiy polidemonizm (ko‘rinmas ruhlar, jinlar va tabiatdan tashqari kuchlarga e'tiqod qilish) va butparastlikka botgan arablarning diniy hayotini tasvirlar ekan, avvalo, samoviy jismlarga sig‘inuvchi qabilalarga e'tibor qaratadi va shunday yozadi: “Ularning diniy e'tiqodlari turlicha edi. Himyar qabilasi quyoshga sig‘inar edi. Bunga Alloh taolo O‘zining aziz kitobida Hudhudning Sulaymon alayhissalomga Himyar (Saba') malikasi Bilqisning dini haqida bergan xabarini shunday zikr qilgani dalildir: ‘Men u (Bilqis) va uning qavmi Allohni qo‘yib, quyoshga sajda qilayotganlarini ko‘rdim’ (Naml surasi, 24-oyat) (Said al-Andalusi, 1991:66)”.

Asarda keltirilgan qabilalar va ularning sig‘inish obyektlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar qadimgi arab politeizmini (ko‘pxudolik tizimini) tasniflash uchun birlamchi manba hisoblanadi. Muallif ushbu e'tiqodlarni mantiqan ikki yirik guruhga bo‘lib oladi. Birinchisi astrolatriya (samoviy jismlarga sig‘inish) va ikkinchisi ibtidoiy butparastlik (Said al-Andalusi, 1991:66).

1. Samoviy jismlarga sig‘ingan qabilalar (Astrolatriya):

- Himyar – quyoshga (yuqorida ta'kidlanganidek, Saba malikasi Bilqis ham shu dinda bo‘lgan);
- Kinona – oyga;
- Tamim – ad-Dabaron (Aldebaran) yulduziga;
- Laxm va Juzom – as-Suho (Yupiter / al-Mushtariy) sayyorasiga;
- Toy – Suhayl (Kanopus) yulduziga;
- Qays – ash-Shi'ro al-Ubur (Sirius) yulduziga;
- Asad – Utorid (Merkuriy) sayyorasiga sig‘ingan.

2. Ibtidoiy butparastlik va fetishizm vakillari:

- Saqif va Iyad – Toif shahridagi xurmo daraxti yoniga o‘rnatilgan mashhur al-Lot sanamiga;
- Iyad va Bakr ibn Voil — “Shaddod Ka'basi” deb atalgan mahalliylashtirilgan butxonaga;
- Hanifa qabilasi – haysdan (xurmo, sariyog‘ va qurut qorishmasidan) yasalgan butga sig‘ingan.

Muallif tarixiy kinoya bilan qayd etishicha, ushbu qabila a'zolari og‘ir ocharchilik yillarida o‘z xudolarini yeb qo‘yganlar.

Soid al-Andalusiyning ushbu batafsil ro‘yxati qiyosiy dinshunoslik uchun ikki jihatdan muhimdir. Birinchidan, u arab politeizmi faqatgina oddiy tosh va yog‘ochlarga sig‘inishdan iborat bo‘lmay, balki Bobil va Mesopotamiya xalqlaridan ta'sirlangan murakkab astral kultlarni ham o‘z ichiga olganini isbotlaydi. Ikkinchidan, Hanifa qabilasining oziq-ovqatdan yasalgan butga sig‘inishi asnosida ibtidoiy fetishizmning mantiqiy zaifligi va absurdligini ilmiy xolislik bilan ochib beradi.

Soid al-Andalusiy asarining yuksak manbashunoslik qiymatini ko‘rsatuvchi yana bir jihat uning Arabiston yarim oroliga kirib kelgan samoviy (monoteistik) va dualistik dinlar tarqalishini aniq qayd etganidir. Muallif yirik islom tarixchisi Ibn Qutaybaga tayanib, islomgacha bo‘lgan arab qabilalaridagi e'tiqodiy holatni shunday bayon qiladi: “Ibn Qutayba aytadiki, nasroniylik (xristianlik) Rabi'a, G‘asson va Huzoa qabilalarining bir qismida, yahudiylik Himyar va Ka'b hamda Kinda urug‘laridan bo‘lgan Banu Horis qabilasida, majusiylik esa Tamim qabilasida tarqalgan edi... Umuman olganda islom dini kelguniga qadar arablar orasida butlarga sig‘inish ustunlik qilar edi” (Said al-Andalusi, 1991:66).

Asarda keltirilgan ushbu dalillar asosida Johiliyat davridagi Arabiston yarim orolidagi diniy plyuralizm (xilma-xillik) va madaniy ta'sirlar xaritasini quyidagicha ilmiy tizimlashtirish mumkin.

Yahudiylik Himyar, Banu Horis va Kinda qabilalarida keng tarqalgan. Bu hududlar, xususan, Yamandagi Himyar podsholigi mintaqaning yirik siyosiy va iqtisodiy markazi bo‘lib, ma'lum davrlarda yahudiylikni davlat dini darajasiga ko'targan.

Xristianlik Rabi'a, G‘asson va Huzoa qabilalari e'tiqod qilishgan. Ushbu qabilalar asosan yarim orolning shimoliy chegaralarida yashab, Vizantiya imperiyasi va Suriya xristianlarining diniy hamda siyosiy ta'sirida bo‘lgan.

Zardushtiylik Tamim qabilasida qabul qilingan. Bu qabila geografik jihatdan Sosoniylar imperiyasiga eng yaqin hududlarda joylashgani va ular bilan faol munosabatda bo‘lgani sababli zardushtiylik rasm-rusumlarini o‘zlashtirgan.

Moniylik asosan Makkaning Quraysh qabilasi vakillari orasida uchragan. Arab manbalarida ko‘pincha “zandaqa” deb atalgan bu dualistik ta'limot Makkaga Iroqdagi al-Hira shahri bilan olib borilgan muntazam savdo-sotiq karvonlari orqali kirib kelgan.

Sobiiylik va butparastlik Arabiston aholisining mutlaq ko‘pchiligi an'anaviy politeizm (turli but-sanamlarga sig‘inish hamda astral e'tiqodlar ‘yulduz va sayyoralarni ulug‘lash’) an'analarida qolgan.

Ushbu qiyosiy ma'lumotlar Soid al-Andalusiyning dinshunos sifatidagi obyektivligini namoyon etadi. U Arabiston yarim orolining islomgacha bo‘lgan tarixini Fors, Vizantiya va Yaman kabi yirik sivilizatsiyalar o‘rtasidagi hudud sifatida xolis baholaydi.

Soid al-Andalusiy qadimgi arab butparastligini baholashda konseptual yondashuvni qo‘llaydi. Olim ko‘pxudolikni sodda va ko‘r-ko‘rona ibodat shakli deb emas, balki qadimgi sobiiylik diniy an'anasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qiladi. Muallifning ushbu qarashi o‘rta asrlar qiyosiy dinshunosligi uchun mutlaqo

yangi va noyob yondashuv bo‘lib, u shunday yozadi: “Arablar orasidagi barcha butparastlar Alloh taoloning yagonaligiga e’tiqod qilar edilar. Ammo vaqtlar o‘tib ular butlarga sobiiylik dinining bir shakli sifatida sig‘indilar. Ular osmon jismlarini va ibodatxonalaridagi butlarni ulug‘lar edilar. Bu e’tiqod xalqlarning dinidan bexabar bo‘lgan nodonlar o‘ylaganidek emas. Ularning fikricha, butparastlar butlarning o‘zini dunyoni yaratgan xudo deb hisoblaydilar. Biz ham, boshqa bir aql-idrokli inson ham bu qarashni qo‘llab-quvvatlamaymiz, zero, Alloh taolo ular haqida shunday degan: ‘Biz ularga (butlarga) faqat bizni Allohga yaqinlashtirsin deb ibodat qilamiz’ (Zumar surasi, 3-oyat)” (Said al-Andalusi, 1991:66).

“Taboqot al-umam” asarida Soid al-Andalusiy islomgacha bo‘lgan davrda arablarning esxatologik qarashlari qanchalik qarama-qarshi va murakkab bo‘lganini qayd etadi: “Qur’oni karimning qayta tirilish, hisob-kitob va Muhammad (s.a.v)ning payg‘ambarliklari haqidagi oyatlari ularning e’tiqodlariga zid kelar edi. Ularning ko‘pchiligi bu g‘oyalarni rad etib, na oxirat hayotiga va na yakuniy jazoyu mukofotga ishonishgan. Bundan tashqari, ular dunyo hech qachon zavol topmaydi va abadiy qoladi, degan e’tiqodda bo‘lganlar. Ayrimlari esa oxiratga ishonganlar, biroq ularning tasavvuriga ko‘ra, kimning qabri ustida tuyasi so‘yilsa, u qiyomatda o‘sha tuyasiga mingan holda tiriladi. Kimga bunday qilinmasa, u piyoda tiriladi, deb hisoblaganlar” (Said al-Andalusi, 1991:66-67).

Asarda alohida ta’kidlanishicha, islom xalifaligi davrida arab tiliga o‘girilgan yunon, fors va hind ilmiy-falsafiy merosi nafaqat saqlanib qolindi, balki yangi bosqichga ko‘tarilib boyitildi. Bu jarayonda Bag‘doddagi “Байт ул-ҳикма” (“Donishmandlik uyi”) va boshqa ilmiy markazlarning roli alohida ta’kidlanadi. Bu yerda turli e’tiqod vakillari birgalikda faoliyat yuritgan. Soid al-Andalusiy bu faktni islom sivilizatsiyasining ilmiy bag‘rikengligi va umuminsoniy bilimga bo‘lgan teran hurmatining dalili sifatida talqin qiladi.

Andalusiyaga bag‘ishlangan bob asarning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi, chunki bu yerda Soid al-Andalusiy o‘zining bevosita guvohi bo‘lgan ilmiy muhitni tasvirlaydi. Andalusiya qanday qilib yunon va hind ilmiy merosini qabul qilib, boyitib, keyinchalik G‘arbiy Yevropaga uzatganligi asarda batafsil yoritilgan. Bu jarayon islom sivilizatsiyasining ilm-fan tarixidagi ko‘prik bo‘lganini ko‘rsatadi (Samso J., 1994: 13).

Soid al-Andalusiyning o‘zi ham amaliy jihatdan bu an’ananing vakili bo‘lgan. U Toledo amirligi saroyida az-Zarqaliy boshchiligidagi olimlar guruhi bilan “Toledo jadvallari” tuzilishida qatnashib, islom astronomiyasining muhim yutuqlaridan birini yaratdi. Bu jihatdan muallif o‘zi tasvirlaganidek, islom ilmiy-madaniy merosining tirik namunasi edi.

Asarda dunyo xalqlarining ilmiy yutuqlarini qiyosiy bayon qilishda Soid al-Andalusiy bir qator muhim metodologik tamoyillarga amal qilgan. Birinchidan, muallif turli manbalarga (arabcha, yunoncha va boshqa tillardagi yozma manbalarga) murojaat qilgan. Ikkinchidan, olim ilmiy yutuqlarni baholashda xolislikni saqlashga intilgan, turli din va millatlarning hissasini adolatli ko‘rsatishga harakat qilgan. Uchinchidan, u fanning rivojlanishini uzviy jarayon sifatida ko‘rib, biror xalqning yutuqlarini boshqasining yutuqlardan ustun qo‘ymagan. Ana shu metodologik tamoyillar “Taboqot al-umam”ni o‘sha davr uchun noyob ilmiy hujjatga aylantirgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, Soid al-Andalusiy islom tafakkuri tarixida qiyosiy dinshunoslik, fan tarixi va sivilizatsiyalar tahlilini o‘zaro bog‘liq holda o‘rgangan olimlardan hisoblanadi. Uning “Taboqot al-umam” asari orqali olimning keng dunyoqarashi, xolis ilmiy yondashuvi va turli din vakillari bilan bevosita ilmiy muloqotda bo‘lgan holda bilim to‘plagani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asarda zikr etilgan dinlar (sobiiylik, zardushtiylik, yahudiylik, xristianlik, islom va boshqalar) haqidagi ma’lumotlar, ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Soid al-Andalusiy boshqa dinlarni ularning manbalari asosida tushunish, qiyoslash va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissalari nuqtai nazaridan baholashga harakat qilgan. Bu jihati bilan uning asari keyinchalik rivojlangan “milal va nihal” janridagi adabiyotlarning muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida baholanadi.

Soid al-Andalusiyning sobiiylarni qadimiy diniy-ilmiy an’ananing davomchisi sifatida ko‘rib chiqishi, yahudiylik va xristianlikning ilmiy-madaniy merosga bergan ijobiy bahosi hamda islom sivilizatsiyasining ilmga bo‘lgan teran e’tiborini tarix sahifalarida yoritishi bularning hammasi – muallif tomonidan qiyosiy-tahliliy metodologiya orqali bir yaxlit ilmiy tasvirda birlashtirilib taqdim etilgan. Shu jihatdan “Taboqot al-umam” dinlar tarixini o‘rganishda qiyosiy metodologiyaning ilk va noyob namunasidir.

Umuman olganda, Soid al-Andalusiyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy manba, balki qiyosiy dinshunoslik va ilm-fan va kashfiyotlar tarixi sohasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u islom tafakkurida boshqa xalqlar va dinlarni o‘rganish madaniyatining ilk klassik namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

"Taboqot al-umam" asarini o'zbek tiliga to'liq tarjima qilish va ilmiy sharhlash kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Abdupattayev M. M. Sharq musulmon dinshunosligi: O'quv qo'llanma. – Bookmany print, 2025. – 164 b.
2. Al-Mas'udi. Kitab al-Tanbih wa-l-Ishraf / M. J. de Goeje tahriri. – Brill, 1894.
3. Bou Alwan H. Said al-Andalusi: Tabaqat al-umam / H. Bou Alwan tahriri. – Dar al-Talad al-Jadid, 1985.
4. De Callatay G. The Sabi'ans of Said al-Andalusi // Studia Graeco-Arabica. – 2017. – Vol. 7. – B. 291–306.
5. Green T. M. The City of the Moon God: Religious Traditions of Harran. – Brill, 1992.
6. Khan M. S. Qadi So'id's Introduction to His Tabaqat al-Umam // Islamic Studies. – 2004. – Vol. 43, No. 1. – B. 5–28.
7. Llavero Ruiz E. Panorama cultural de Al-Andalus según Abu l-Qasim Said b. Ahmad, cadi de Toledo // Boletín de la Asociación Española de Orientalistas. – 1987. – Vol. 23. – B. 79–100.
8. Martinez-Gros G. Islamic Historiography and the History of Civilizations: A Study of Said al-Andalusi's Kitab Tabaqat al-Umam // Studia Islamica. – 2000. – Vol. 90. – B. 5–25.
9. Said al-Andalusiy. Kitab Tabaqat al-umam / L. Cheikho tahriri. – Imprimerie Catholique, 1912.
10. Said al-Andalusiy. Introduction to Science in the Medieval World. – University of Texas Press, 1991.
11. Said al-Andalusiy. Science in the Medieval World: Book of the Categories of Nations / S. I. Salem, A. Kumar tarjimasi. – University of Texas Press, 1991.
12. Samsó J. Islamic Astronomy and Medieval Spain. – Variorum, 1994.

REFERENCES

1. Abdupattayev M. M. Sharq musulmon dinshunosligi: Handbook. – Bookmany print, 2025. – 164 p.
2. Al-Mas'udi. Kitab al-Tanbih wa-l-Ishraf / M. J. de Goeje ed. – Brill, 1894.
3. Bou Alwan H. Said al-Andalusi: Tabaqat al-umam / ed. H. Bou Alwan. – Dar al-Talad al-Jadid, 1985.
4. De Callatay G. The Sabi'ans of Said al-Andalusi // Studia Graeco-Arabica, 2017, Vol. 7, pp. 291–306.
5. Green T. M. The City of the Moon God: Religious Traditions of Harran. – Brill, 1992.
6. Khan M. S. Qadi So'id's Introduction to His Tabaqat al-Umam // Islamic Studies, 2004, Vol. 43, No. 1, pp. 5–28.
7. Llavero Ruiz E. Panorama cultural de Al-Andalus según Abu l-Qasim Said b. Ahmad, cadi de Toledo // Boletín de la Asociación Española de Orientalistas, 1987, Vol. 23, pp. 79–100.
8. Martinez-Gros G. Islamic Historiography and the History of Civilizations: A Study of Said al-Andalusi's Kitab Tabaqat al-Umam // Studia Islamica, 2000, Vol. 90, pp. 5–25.
9. Said al-Andalusi. Kitab Tabaqat al-umam / ed. L. Cheikho. – Imprimerie Catholique, 1912.
10. Said al-Andalusi. Introduction to Science in the Medieval World. – University of Texas Press, 1991.
11. Said al-Andalusi. Science in the Medieval World: Book of the Categories of Nations / trans. S. I. Salem, A. Kumar. – University of Texas Press, 1991.
12. Samsó J. Islamic Astronomy and Medieval Spain. – Variorum, 1994.